

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

OTAYAROVA UMIDA BOLIBEK QIZI

**ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” VA ABDURAHMON JOMIY
“XIRADNOMAYI ISKANDARIY” DOSTONLARINING QIYOSIY
TAHLILI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Otayarova Umida Bolibek qizi

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” va Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarining qiyosiy tahlili 3

Отаярова Умида Болибек кизи

“Сравнительный анализ дастанов Алишера Навои “Садди Искандари” и Абдурахмана Джамии “Хирадномай Искандари” 23

Otayarova Umida Bolibek qizi

“Comparative analysis of dastans “Saddi Iskandari” by Alisher Navoi and “Khiradnomai Iskandari” by Abdurahmon Jomiy 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

OTAYAROVA UMIDA BOLIBEK QIZI

**ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARIY” VA ABDURAHMON JOMIY
“XIRADNOMAYI ISKANDARIY” DOSTONLARINING QIYOSIY
TAHLILI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/Fil3756 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muhiddinov Muslihiddin Qutbiddinovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qobilov Usmon Uralovich**
filologiya fanlari doktori, dotsent
Ismoilov Ilyos Abdukayumovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, (8366) 239-18-92; faks: (0366) 99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0366) 66 239-11-40, (0366) 66 239-18-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_____” _____kuni tarqatildi.
(2024-yil “_____” _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.A.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.M.Muxitdinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida bir makonda yonma-yon yashagan, urf-odatları, madaniyati, tarxiiy-ma'naviy ildizlari, turmush tarzi va an'analari uyg'un bo'lgan xalqlarning adabiy, diniy-irfoniy, badiiy-estetik qarashlarini o'zida aks ettirgan ijodkorlar merosiga qiziqish ortib bormoqda. Milliy qadriyatlar asosida bir janr va mavzuda bitilgan ikki buyuk so'z san'atkorlari asarlarining kompozitsion tuzilishi, sayyor sujetga yondashuvlari, obrazlar olami hamda badiiyati, asarda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy, ilohiy-irfoniy qarashlarning ifodalanishi, ularning shakllanish omillari va tadrijiy takomili kabi masalalarni ochib berish adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida muayyan sayyor sujet asosida yaratilgan badiiy asarlarning an'ana va novatorlik masalasini yoritish, turkiy va forsiy xalqlar adabiyotining o'zaro ta'sirlanish hamda davr qonuniyatlari jihatidan rivojlanish jarayonini tadqiq etish masalalariga e'tibor kuchayib bormoqda. Bu esa ijodkorlarning o'z davriga qadar yaratilgan an'analarga munosabati, uni davom ettirishdagi o'ziga xosligi, adabiy aloqa va adabiy ta'sir kabi masalalarga aniqlik kiritishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, Sharq xalqlarining badiiy tafakkuri hamda madaniy hayotida katta ta'sirga ega bo'lgan asarlarning o'zbek va fors-tojik adabiyotida tutgan o'rnini, jamiyat axloqining yuksalishidagi ahamiyati, badiiy-estetik, axloqiy-ta'limiy jihatlari va poetik o'ziga xosligini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish ahamiyatlidir.

Mamlakatimiz hayotida kechayotgan tub islohotlar boshqa sohalar qatori adabiyotshunoslik yo'nalishida ham o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Jumladan, asrlar davomida dunyoning ilmiy va adabiy jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan Alisher Navoiy hamda Abdurahmon Jomiyning bebaho ijodini tadqiq etish kun tartibidagi muhim masalalardan biriga aylandi. "Ular o'lmas asarlari bilan jahon xalqlari o'rtasida tinchlik, ozodlik va insonparvarlik tamoyillarini, do'stlik va o'zaro ishonch g'oyalarini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar"¹. Shu bois "Saddi Iskandariy" va "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlarining komparativistik metod asosidagi tadqiqi adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, bajarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-1995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shmmirziyoyevning-markaziy-va-janubiy-osiyo-mintaqaviy-o'zaro-bog'liqlik-tahdidlar-va-imkoniyatlar-mavzusidagi-xalqaro-konferensiyadagi-nutqi>

qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2021-yil 4-fevralda "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi qarorlari, "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori" mavzusidagi ma'ruzasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta'sir masalalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Hindiston, Amerika, Italiya, Buyuk Britaniya, Saudiya Arabistoni, Misr, Ozarbayjon, Turkiya, Tojikiston, Rossiya² va boshqa mamlakat olimlari tomonidan Alisher Navoiy ijodini o'rganishga bag'ishlangan salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu ishlarda Navoiy ijodi, adabiy ta'sir masalalari jahon adabiyoti taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida tadqiq etilgan. Dunyo adabiyotshunosligida Navoiyning nafaqat "Saddi Iskandariy", balki butun ijodini atroflicha, chuqur tahlil etishni rus olimi Y.E.Bertels boshlab bergan. Olim Iskandar obrazining paydo bo'lish tarixiga e'tibor qaratib, bu yo'nalishda yaratilgan asarlarni ko'proq siyosiy donishmandlik majmuyi, davr mafkurasi jihatidan tahlil qilib, o'z davri ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi manbalar sifatida baholaydi³.

O'zbek adabiyotshunosliga Alisher Navoiy ijodi, xamsashunoslik va adabiy ta'sir masalalari yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. A.Qayumov dostonning g'oyasi, obrazlar tizimi, badiiyatiga oid kuzatishlarini bayon qilgan bo'lsa⁴, M.Hamidova "Saddi Iskandariy" dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzdi⁵. Y.Azimov "Xiradnomayi Iskandariy" yuzasidan olib borgan tadqiqotida "Xamsa" dostonlarining mavzu va kompozitsiyasi, shoirlarning Iskandar obraziga munosabatidan kelib chiqib, Alisher Navoiyning mazkur dostoniga ham murojaat

² Walmsley Nicholas Gerard. O. Navā'i: imitation and the invention of a Central Asian literary icon, 1500-1900. PhD dissertation. – Indiana: 2016. – 342 p.; Fearey Margaret Sharon. Nava'is turcic and Persian quatrains: discourse typology and the bilingual poet. PhD dissertation. – Michigan: 1977. – 188 p.; R.Zipoli. The Techniques of Gawab replies by Nawai to Hafiz and Gami. – Venezia: Libreria Editrice Cafoscarina, 1993. – 83 p.; Ünver Ismail. Türk Edebiyatında Manzum İskendername. Doktora tezi. – Ankara Üniversitesi, 1975; Tören H. Alî Şîr Nevâyî Sedd-i İskenderî (İnceleme-Metin-Dizin). Doktora Tezi. – İstanbul: 1990. – 1129 s.; Нагиева Дж. Алишер Навои и Азербайджанская литература (XV-XIX вв). – М., 1986; Айни, Садриддин. Алишер Навоий/ Садриддин Айни // Шарки Сурх, 1941. № 1,2,3,4,5; Восиева Р.К. Роман об Александре и его рецепция в народных романах "Искандар - наме". Дис... докт. филол. наук. – Душанбе, 2016. – 379 с.

³ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – С. 283-368.

⁴ Қаюмов А. Садди Искандарий. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрети, 1975.

⁵ Ҳамидова М. "Садди Искандарий" дostonининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 1994.

qiladi⁶. N.Komilov “Saddi Iskandariy”ning nazariy masalalarini hamda hikoyat va hikmatlarini tasavvufiy yo‘nalishda tadqiq etgan⁷. I.Ismoilov Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy Iskandarnomalarini qiyoslashga bag‘ishlangan dastlabki ishida Iskandar obraziga har ikki ijodkorning munosabati, dostonlarning sujet va kompozitsiyasi, an‘ana va novatorlik xususida fikr yuritisa, keyingi tadqiqotida Iskandar obrazining genetik asosi, badiiy adabiyotga kirib kelishi, sujet va obrazlar tizimini tadqiq etgan⁸.

“Saddi Iskandariy”ga murojaat qilingan boshqa bir qator tadqiqotlarda Navoiyning muayyan masaladagi mahorati ushbu doston misolida ochib berilgan⁹. Turk adabiyotshunosi I.Avjiy Iskandarnomalarning turkiyshunoslikdagi tadqiqi va manbalariga oid kuzatishlarga munosabat bildirsa¹⁰, M.Toutant Jomiyning Navoiyga ta’siri masalasini o‘rganishda¹¹ “Saddi Iskandariy” dostonini ham tadqiqot markaziga tortgan. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning ustoz-u shogirdlik munosabatlari, XV asrning II yarmi o‘zbek, fors-tojik adabiy aloqalari va adabiy ta’sir jarayonida tutgan o‘rni, o‘zaro munosabatlaridagi yaqinlik hamda ijodiy hamkorlik singari masalalar S.Ayniy, A.Bertels, P.Shamsiyev, A.Afsahzod, A.Mirzoyev, Sh.Shomammedov, I.Sultonov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallayev, N.Komilov, S.G‘aniyeva, R.Vohidov, I.Haqqulov, E.Shodiyev, E.Ochilov N.Asomuddin, S.Tohirov, D.Nazarova kabi o‘zbek, rus va tojik adabiyotshunoslari tomonidan ham tadqiq qilingan¹².

⁶Азимов Ю. Абдурахмон Жомий “Хирадномаи Искандарий” дostonининг қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1996. – 134 б.

⁷Комилов Н. Хизир чашмаси. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 190 б.

⁸ Ismoilov I. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining qiyosiy tahlili. Filol. fan. b. fals. dok... diss. – Toshkent, 2019; shu muallif. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni genezesi va poetikasi. Filol. fan. d-ri... diss. – Тошкент, 2022.

⁹Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – Тошкент: Фан, 1988; Салимов И. Алишер Навоийнинг бадий образ яратиш маҳорати (“Садди Искандарий” мисолида). Филол. фан. номз... дисс. – Самарқанд, 1994; Ҳайитов А. Алишер Навоий “Хамса”сини насрийлаштириш: анъана, табдил ва талқин. Филол. фан.номз... дисс. – Тошкент, 2000; Абдуллаев О. Амир Хусрав Дехлавий ва Амир Алишер Навоий (анъана, янгилик ва маҳорат масалалари): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Хужанд, 2011; Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2011.

¹⁰ Avcı İ. Türk Edebiyatında İskendernâmeler ve Ahmed-i Rıdvân'ın İskendernâme'si. Doktora Tezi. – Balıkesir, 2013; шу муаллиф. Alexander the Great in Azerbaijani Turkish Literature // Remarks on Turkish Studies. – Warsaw: 2015; шу муаллиф. Divan Şiirinde İskender-i Zülkarneyn // The Journal of International Social Research, 2014, Vol. 7, Issue: 29; шу муаллиф. Evliya Çelebi'nin Seyahatnâme'sinde İskender-i Zülkarneyn // Türik Dili, Edebiyat ve Halkbilimi Araştırmaları Dergisi. – 2013, – № 2; шу муаллиф. İskendernâmelerde ölümsüzlüğe yolculuk: İskender-i Zülkarneyn ve Hızır // Türkoloji sempozyumu bildirileri. – Adana, 2012.

¹¹ Marc Toutant. Evaluating Jami's Influence on Navai. The Case Studies of the Khiradnama-yi Iskandari and the Sadd-i Iskandari. P. 606-652.

¹²Айний С. Танланган илмий асарлар. – Т: Фан, 1978; Бертельс Э. Навои и Джамии. – Москва: Наука, 1965; Шамсиев П. Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий. – Тошкент: Фан, 1966; Афсаҳзод А. Лирика Абд ар-Раҳима Джамии. Проблемы текста и поэтики. – Москва: Наука, 1988; Мирзоев А. Сездэх мақола. – Душанбе: Ирфон, 1977; Шомухаммедов Ш.Форс-тожик адабиёти классиклари. – Тошкент: Уздавнашр, 1963; Султонов И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2010; Қаюмов А. Назм ва тафаккур куёши. – Тошкент: Фан, 1992; Қаюмов А. Дилкушо такрорлар ва руҳавзо ашъорлар. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011; Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр - Ўзбекистон, 2009; Ганиева С. “Яна “Хамсат ул-мутаҳаййирин” ҳақида” / Жомий ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Моавроуннаҳр, 2005; Воҳидов Р. Шарқнинг буюк алломаси. – Тошкент: Фан, 1989; Ҳаққул И. Ирфон ва идрок. – Тошкент: Маънавият, 1998; Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс-тожик адиблари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989; Очиллов Э. Жомий – Навоий идеалидаги комил инсон / Жомий ва ўзбек адабиёти. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2005; Насриддин Асомуддин. Ҷоми – шоир ва мутафаккир. –

Y.Azimov tojik tilida yozilgan nomzodlik dissertatsiyasida Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostonini “Saddi Iskandariy” bilan qiyoslab o‘rgansada, ushbu ikki doston o‘zbek adabiyotida maxsus tadqiq etilmagan. B.Murtozayev, A.Erkinov, S.Olimov¹³ kabi adabiyotshunoslar o‘z tadqiqotlarida Navoiy “Saddi Iskandariy”ni Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostoni ta’sirida yozganligini ta’kidlaydilar. Nazira asarning badiiy salmog‘i, ijodkorning mahorati bevosita nazira uchun asos bo‘lgan asar bilan qiyoslab o‘rganilgandagina namoyon bo‘ladi. Shuni e’tiborga olsak, ushbu dissertatsiya mavzusi dolzarb ekanligi ayon bo‘ladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Alisher Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” mavzusidagi ilmiy izlanishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Xiradnomayi Iskandariy” va “Saddi Iskandariy” dostonlarini qiyosiy aspektda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Iskandar obrazining tarixiy va diniy asoslarini xamsachilik an’anasi misolida aniqlash hamda Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy iskandarnomalaridagi vorisiylik va o‘ziga xosligini yoritish;

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy iskandarnomalarining kompozitsiyasi, sujetidagi an’anaviylik, o‘zaro mushtaraklik va novatorligini ochib berish;

dostonlarning obrazlar va timsollar olamini tadqiq etish, ularni tasniflash, tarixiy, xayoliy obrazlarga murojaatdan ko‘zlangan adabiy niyatni qiyosiy aspektda aniqlash;

dostonlardagi hikoyatlarning asar kompozitsiyasidagi o‘rni, ularning miqdori, mavzulari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko‘ra o‘zaro uyg‘un va farqli tomonlarini asoslash;

“Saddi Iskandariy”dagi Abdurahmon Jomiy timsoli vositasida Alisher Navoiyning ustoziga munosabati, o‘zaro adabiy hamkorligini dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy”¹⁴ va Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy”¹⁵ dostonlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” va Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarining qiyosiy tahlili tashkil etadi.

Тошкент, 1989; Тоҳиров С.К. Темурийлар даврида хамсанавислик. Монография. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – 248 б; Назарова Д. Абдурахмон Жомийнинг “Сухбат ул-аброр” ва Алишер Навоийнинг “Ҳайрат ул-аброр” дostonларининг қиёсий таҳлили: Филол. фан. б. фалс. док... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 50 б.

¹³Олимов С. “Лисон -ут тайр”нинг қиёсий поэтикаси: синтез, назиравийлик ва таржимавийлик. Филол. фан. д-ри... дисс. – Самарқанд, 2022. – 205 б.; Муртазоев Б.Х. Алишер Навоий “Сабаи сайёр” ва Хусрав Деҳлавий “Ҳашт беҳишт” дostonларининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент – Термиз, 1991. – 139 б.; Эркин А. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV-XX аср манбалари. Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2008. – 282 б.

¹⁴ Alisher Navoiy. TAT:O‘n jildlik /mas‘ul muharrir: I.Naqul. J.8.– Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – 704 b.

¹⁵ Чомий. Хирадномаи Искандарий. Критический текст. – Москва: Наука, 1984. – 461 б.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tipologik va germeneytik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xamsanavislikda Iskandar obrazining nasl-nasabi, jahongirliigi borasidagi tarixiy, ya'juj-ma'jujlardan to'suvchi devor qurgani, adolatparvarligi haqidagi diniy-tasavvufiy hamda "Saddi Iskandariy" va "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlarining mutaqorib vaznida yozilishi, Iskandar shaxsiga murojaat kabi an'anaviylik jihatlari asoslangan;

Alisher Navoiyning nazmiy va nasriy asarlaridagi "Iskandar va Doro" obrazida adolat, "Iskandar va Xizr chashmasi"da foniy hayot, "Iskandar va devor"da ezgulik va yovuzlik, "Iskandar va oyna" timsolida irfoniy haqiqat g'oyalari aks ettirishi aniqlangan;

"Saddi Iskandariy" va "Xiradnomayi Iskandariy" dostonlari hajmi, kompozitsiyasi, sujeti qiyoslanib, Alisher Navoiyning 7215 baytli, Abdurahmon Jomiyning esa 2315 baytdan iborat dostonlarida ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ta'limiy qarashlari ifodalangani ochib berilgan;

"Saddi Iskandariy" va "Xiradnomayi Iskandariy" tarkibidagi hikoyatlarning qiyosi orqali Alisher Navoiyda hayotiy voqelik, Abdurahmon Jomiyda esa tasavvufiy-irfoniy g'oyalarning ustunligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

An'anaviy iskandarnomalarning tarixiy, diniy asoslardagi qarashlari umumlashtirilishi, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy dostonlaridagi an'anaviylik, dostonlarning hajm, kompozitsiya, sujet, hikoyat, obraz va timsollaridagi o'ziga xosliklar, adabiy ta'sirga oid tahliliy mulohazalar adabiyotshunoslikka oid yaratilajak darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

"Saddi Iskandariy" va "Xiradnomayi Iskandariy"da qo'yilgan nazariy masalalarni dalillash uchun keltirilgan tamsiliy hikoyatlarning qiyosiy tahlillari hozirgi yosh avlod ilmiy dunyoqarashi, poetik tafakkurining shakllanishi va ma'naviy olamining boyishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, amalga oshirilgan tahlillar va chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy, germeneytik usullar vositasida asoslanganligi, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola va tezislar hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy xulosalardan ikki buyuk shoir iskandarnomalariidagi sayyor sujetning tarixiy, diniy asoslari, an'anaga munosabati, uning davom ettirilishi, o'zaro mushtaraklik va o'ziga xoslik, adabiy aloqa, adabiy ta'sir haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirish hamda bir tizimga solishda, ayni yo'nalishda yangi tadqiqotlar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi xulosalardan “Navoiyshunoslik”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” fanlarini va ixtisoslashgan maktablarda maxsus kurslarni o‘qitishda foydalanish hamda oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmalar, majmualar, adabiy aloqa va adabiy ta’sirga oid lug‘atlar yaratish, ularni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilishi. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” Abdurahmon Jomiy “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarining qiyosiy tahlili bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

xamsanavislikda Iskandar obrazining nasl-nasabi, jahongirliги borasidagi tarixiy, ya’juj-ma’jujlardan to’suvchi devor qurgani, adolatparvarligi haqidagi diniy-tasavvufiy hamda “Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlarining mutaқorib vaznida yozilishi, Iskandar shaxsiga murojaat kabi an’anaviylik jihatlari borasidagi mulohazalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan IL-402104474. “O‘zbek adabiyoti”ning ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish mavzusidagi innovatsion loyahasini bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 6-apreldagi № 04/1-891 sonli ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodini, o‘zbek badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lmish noyob durdonalarni dunyo hamjamiyatiga tanishtirish hamda targ‘ib etishda xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning nazmiy va nasriy asarlaridagi “Iskandar va Doro” obrazida adolat, “Iskandar va Xizr chashmasi”da foniy hayot, “Iskandar va devor”da ezgulik va yovuzlik, “Iskandar va oyna” timsolida irfoniy haqiqat g‘oyalarini aks ettirganligi xususidagi xulosa va umumlashmalardan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti “Navoiy muzeyi” ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi Davlat noyob obyektida o‘tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlarda foydalanilgan (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 28-martdagi № 10-1376-sonli ma’lumotnomasi). Natijada mavzuga doir tadqiqotlar ilmiy saviyasining boyishiga erishilgan.

“Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlari hajmi, kompozitsiyasi, sujeti qiyoslanib, Alisher Navoiyning 7215 baytli, Abdurahmon Jomiyning esa 2315 baytdan iborat dostonlarida ijtimoiy-siyosiy, ilohiy-irfoniy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarining ifodalangani haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan “O‘rta asr Sharq allomalari ensklopediyasi”, “O‘rta asrda yashagan mashhur samarqandlik allomalar” asarlarining mazmunini to‘ldirishda foydalanilgan (Ilmiy-tadqiqot markazining 2024-yil 28-martdagi № 02/119-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiyning sayyor sujetni g‘oyaviy-badiiy jihatdan boyitib, tarixiy, diniy hamda xalq og‘zaki ijodida mavjud Iskandarlarni umumlashtirgani va adabiyotda ideal podshoh obrazini yaratganligi asoslangan.

“Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandariy” tarkibidagi hikoyatlarning qiyosi orqali Alisher Navoiyda hayotiy voqelik, Abdurahmon Jomiyda esa tasavvufiy-irfoniy g‘oyalarning ustunligiga oid ilmiy yangiliklar, taklif va tavsiyalardan Samarqand viloyati radiosida 2024-yil 1-aprel kuni efirga uzatilgan “Samarqand sadosi” eshittirishining dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 3-apreldagi 01-07/65-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur eshittirishning mazmuni yanada boyidi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta mahalliy, 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning dastlabki bobi “**Sharq adabiyotida Iskandar haqidagi sayyor sujet genezisi**” deb nomlanib, “**O‘rta asrlar Sharq adabiyotida Iskandar obrazi talqini**” nomli birinchi faslda Iskandar obrazining turkiy hamda forsiy yozma adabiyotdagi shakllanish omillari tadqiq qilinadi. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida Iskandari Zulqarnayn, Iskandari Rumiyy yoki Iskandari Maqdon nomlari bilan mashhur bo‘lgan Aleksandr Makedonskiy (mil.avv. 356-323-yillar) haqida vafotidan so‘ng turli afsona va rivoyatlar paydo bo‘la boshlaydi. Ular qaysi tarixiy davrda, qanday muhitda, qay diniy ta’limotga bo‘yusunvchi qavm tilidan qalamga olinsa, o‘sha xalq nigohi nuqtayi nazari bilan boyib boraverdi. Sharq adabiyotida Iskandar siymosini ilk bor fors shoiri Abulqosim Firdavsiy o‘zining “Shohnoma” dostonida bosh qahramon darajasiga olib chiqdi. Adib doston yaratishda, asosan, “Xudoynamak” materiallariga, turli afsona va rivoyatlarga, shuningdek, qisman bo‘lsa-da, “Psevdo Kallesfen” romaniga tayandi¹⁶. Bu mavzuni mustaqil badiiy asar sifatida birinchi marta qalamga olgan Nizomiy Ganjaviy Iskandar obrazini badiiylashtirib, uni odil shoh, payg‘ambar sifatida talqin qiladi. Yosh hukmdor na boyluk, na shuhrat va na mamlakat olishni o‘ylaydi,

¹⁶ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. 1 китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – В. 493.

balki jabr-zulmlardan azob tortayotgan xalqlarni himoya qilish uchungina urushlar olib boradi. Xamsachilikda alohida an'anaga aylangunga qadar Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarlarida Iskandar mavzusiga murojaat qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Dastlabki ikki asarda Iskandarning kim ekanligi, tarixi haqida fikr yuritilgan bo'lsa, keyingi asarlarda badiiy ehtiyoj jihatidan u bilan bog'liq hikoyatlar keltiriladi. Ammo bu asarlarni birlashtirib turuvchi asosiy jihat Iskandarning odilligi masalasidir.

Iskandar obrazi Sharq adabiyoti, xususan, turkiy adabiyotda Navoiy "Xamsa"sidan so'ng eng ko'p murojaat qilinadigan timsollardan biriga aylandi. Shoir "Saddi Iskandariy"dan tashqari "Xamsa" tarkibidagi boshqa dostonlari, shuningdek, "Tarixi muluki ajam" va "Lison ut-tayr"da bu mavzuga murojaat qiladi. Yuqoridagilardan tashqari, "Badoe' ul-bidoya", "Navodir un-nihoya" va "Xazoyin ul-maoniy" devonlaridagi yigirma sakkiz bayt tarkibida Iskandar nomi tilga olingan bo'lib, takrorlanuvchi baytlarni ham hisobga olsak, biz ko'rib chiqqan olti devon tarkibida jami o'ttiz olti marta Iskandar obrazi uchraydiki, bu Navoiyning nafaqat epik asarlarda, balki nazmda ham Iskandar obraziga murojaat qilganini isbotlaydi. Mazkur obraz quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: 1. Iskandar devori (ya'juj-ma'juj). 2. Iskandar va hayot suvidan benasiblik (Iskandar va zulmat safari). 3. Iskandar oynasi. 4. Iskandar va Doro mojarosi. 5. Iskandarning dunyoni zabt etishi, ya'ni Iskandar mulki.

Bobning ikkinchi fasli "**Xamsachilikda Iskandar badiiy timsoli**" deb nomlanadi. Unda xamsanavislar talqinidagi Iskandar obrazi qiyosiy jihatdan tahlil etiladi. Nizomiy Ganjaviy Iskandar talqiniga bag'ishlangan dostonini ikki qismga bo'lib, birinchi qism – "Sharafnoma"da Iskandarning nasl-nasabi, taxtga o'tirishi, harbiy yurishlarini qalamga oladi. Ikkinchi qism – "Iqbolnoma"da esa hakimlar bilan adolat, ilm-ma'rifat, donolik haqidagi suhbatlari hamda shu mavzuning isboti sifatida hikoyatlar ilova qilinadi. Nizomiydan taxminan yuz yil keyin 1300-1301-yillarda Xusrav Dehlaviy "Oyinayi Iskandariy" dostonini yaratdi. Nizomiyning Iskandar haqidagi tarixiy-afsonaviy manbalaridan mukammal foydalanganini qayd etgan shoir o'z dostoni sujetida, asosan, "Iskandarnoma" voqealariga tayanadi. Lekin shu bilan birga dostonga bir qator yangi hikoyat va timsollar kiritgan Xusrav Dehlaviy Nizomiy dostonining kompozitsiyasini xiyla mukammallashtiradi. "Oyinayi Iskandariy"ning tili ancha sodda, uslubi ravon bo'lib, shoir tabiatni, uning hodisalari va unsurlarini, ilohiylikni mohirona tasvirlaydi¹⁷. Abdurahmon Jomiy Iskandar haqidagi voqealarni kamaytirib, hakimlar xiradnomasiga e'tibor qaratadi va buni eski rivoyatni so'zlamog' foydasiz ekanligi bilan izohlaydi: *Хиранднома з-он ихтиёри ман аст –//Ку афсонахонӣ на кори ман аст*¹⁸ (Ya'ni xiradnoma mening ixtiyorim ekan, afsonaxonlik bilan nima ishim bor?), Alisher Navoiy esa Iskandar timsolini tayyor holda bermaydi, uni voqealar rivoji bilan birga pog'onama-pog'ona o'stirib, takomillashtirib boradi. Navoiy shahzoda

¹⁷ Исмоилов И. Алишер Навоийнинг "Садди Искандарий" дostonи генезеси ва поэтикаси. (Монография). – Тошкент: Anorbooks, 2022. – Б. 205.

¹⁸ Чомий. Хирадномаи Искандарий. Критический текст. – Москва: Наука, 1984. – Б. 334.

Iskandar obraziga, uning go‘daklik yillari, ta’lim-tarbiyasi hamda balog‘atga yetishiga katta e’tibor beradi. Shahzoda toj-u taxt va mol-davlatga emas, balki ilm-fanga, olijanob insoniy fazilatlarini egallashga intiladi. Alisher Navoiy salafllari an’analarini davom ettirgan holda Iskandar obrazini adolatli shoh sifatida tasvirlaydi va uni komil inson darajasiga olib chiqadi. Barcha iskandarnomalarda Iskandar boshqa shohlar kabi o‘z xalqiga jabr-zulm qilish, o‘zga mamlakatlarni fath etish, ularni talashni o‘ylamaydi. U o‘zini Xudoning bandalaridan biri – kamtarin va ojiz odam, deb hisoblaydi. U – yer-u osmon, falak va inson tabiatini bilishga qiziqadigan, hakimlar, dono darveshlarni hurmat qiladigan, dili ma’rifatga tashna inson. Shu bois ham qayerga bormasin, adolat o‘rnatish maqsadida, avvalo, sulh taklif etadi. Hech qachon biror yerni bosib olish uchun jang qilmaydi, aksariyat hollarda raiyat undan adolat o‘rnatib berishini iltimos qiladi. “Xiradnomayi Iskandariy” dostonida Iskandarning otasi o‘limi oldidan Arastuni chaqirib, undan Iskandarning yonida bo‘lishni, Iskandarga xiradnoma yozib berishni iltimos qiladi. Bu bilan ijodkorlar podshohlarni kengashmay ish tutmaslikka, har bir ishni boshlashdan oldin, avvalo, hakimlardan, ya’ni ilm ahlidan, o‘z davrining fozil-u fuzalolaridan maslahat so‘ramoqqa chorlaydi. Shu bilan birga ilm ahli ham el dardiga sherik bo‘lib, ularning og‘irini yengil qilishda podshohga yelkadosh bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydilar. Shuning uchun ham “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar qayerga bormasin unga besh yuz olim yo‘ldosh bo‘ladi. Doimo ularning maslahati bilan ish qiladi. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy talqinida Iskandarning asosiy maqsadi xalq ra’yi va Haq rizoligi asosida dunyo bo‘ylab adolatli hukmdorlikni o‘rnatish, bilim va donishmandlik, aql-u zakovat, xayr-u saxovat, afv-u kechirimlilik, mehr-u shafqatni odamlar orasida qaror toptirish, qisqasi tasavvuf ta’limotining ezgu amallarini joriy etishdir.

Uchinchi fasl **“Xiradnomayi Iskandariy”: an’ana va o‘ziga xoslik”** deb nomlangan. Bunda Abdurahmon Jomiyning Iskandar haqidagi dostoniga kiritgan yangiligi va an’anaga munosabati tahlil etiladi. Shoir an’anaga ko‘ra Iskandar haqidagi dostonini “mutaqoribi musammani mahzuf” bahrida yozadi. Nizomiy Ganjaviy dostoni 10500 bayt, Xusrav Dehlaviy dostoni 4450 bayt, Alisher Navoiy dostoni 7215 bayt bo‘lgani holda, “Xiradnomayi Iskandariy” hajman kichik – 2315 baytdan tarkib topgan. Kirish qismi hamd, na’t, munojot, Husayn Boyqaro va Xoja Ahrori Vali ta’rifi, farzandga nasihat va asarning yozilish sababidan tashkil topgan. Muqaddima qismi 72 baytni tashkil qiladi. Nizomiy Ganjaviyda 196 bayt, “Oyinayi Iskandariy”da 72 bayt, “Saddi Iskandariy”da esa 206 bayt. Shuningdek, turli nashrlarda ham farqli tarzda berilgan bo‘lib, 1984-yilda Moskvada chop etilgan tanqidiy matnda¹⁹ hamda G‘iloniy domla tahriri ostida hijriy 1366-yilda Eronda nashr etilgan “Haft avrang”²⁰ kitobida doston to‘lig‘icha aks etgan. 1964-yilda nashr etilgan Jomiy asarlarining 5-jildida doston qisqartirishlar bilan berilgan²¹. Shuningdek, pttp://360.yahoo.com almaz06²² saytida ham qisqartirilib,

¹⁹ Чомий. Хирадномаи Искандарий. Критический текст. – Москва: Наука, 1984. – 461 с.

²⁰ Abdurahmon Jomiy. Haft avrang. – Eron. Hijriy 1366. – 1089 s.

²¹ Абдурахмон Чомий. Ҷилди панҷум. – Душанбе: Ирфон. – 1964. 360 с.

²² www.kitabnak.com. هفت اورنگ جامی

dastlabki muqaddima boblari tushirib qoldirilganligini ko‘ramiz. Ushbu kitob “Xiradnomayi Iskandariy”ning boshqa nusxalaridan mug‘anniynoma va soqiynomalarning kitob oxirida berilgani bilan ajralib turadi. Dostonda Iskandarning so‘fiylikiga, hakim-u donishmandligiga urg‘u beriladi. Uning hayoti bilan bog‘liq voqealar yo‘l-yo‘lakay yozib o‘tiladi, xolos. Shu jihatdan mazkur doston “Iskandarnoma”, “Oyinayi Iskandariy”, “Saddi Iskandariy”dan farq qilib, ko‘proq pandnoma, xiradnoma shaklini kasb etgan. Rum podshohiga keksayganda Alloh tomonidan bir o‘g‘il ato etilib, uni Iskandar deb ataydilar. U yettidan o‘tib, sakkiz yoshga qadam qo‘yganida podshohlik belgilari aks eta boshlaydi va shahzoda Arastu tarbiyasiga topshiriladi. Uning ilm-ma‘rifat, shohlik borasidagi bilimlarini oshirishda Arastu rahnamo bo‘lganligi xamsachilikdagi barcha iskandarnomalarda qayd etilgan. “Xiradnomayi Iskandariy” dostonida esa Arastu Faylaqus vafotidan oldin saroyga taklif etilib, Iskandarga ustozlik qilishni boshlashi, shahzodaga xiradnoma yozib berish vazifasini olishi, shogirdlari bilan suhbatda va Iskandar vafotidan so‘ng Bonuga ta‘ziya bildirib, maktub yozgani singari lavhalardagina namoyon bo‘ladi. “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar har qanday ishni boshlashdan oldin Arastuning maslahatini oladi va ko‘plab murakkab masalalarda unga murojaat qiladi. Shuningdek, Arasu “Xiradnomayi Iskandariy”da Iskandarga ustozlik qilsa (*Фирустод неши Аристотилаш, Ки гардад зи нобихрадї ҳорусаи*²³ (ya‘ni: Donoyi ahli jahon bo‘lsin deb Aristotel huzuriga yubordi), “Saddi Iskandariy”da shahzodaga Naqumojis ta‘lim beradi. (dostonda Aristotelning otasi).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Sujet, kompozitsiya, obraz, timsollardagi mushtaraklik va o‘ziga xosliklar**” deb nomlanadi. “**Dostonlar sujetining qiyosiy tahlili**” nomli birinchi faslda “Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandariy” dostonlari sujeti tahlilga tortilgan. Adabiyotshunoslikda dostonlardan qay birining oldin yozib tugatilgani munozarali sanaladi. Y.E. Bertels Navoiy hamda Jomiy asarlarining adabiy va mavzu jihatdan uyg‘unligini isbotlab, bu sohada yangilik qiladi, shuningdek, Jomiyning dostonlarini Navoiyning “Xamsa”siga bog‘liq ravishda tushunilishi kerak²⁴, – degan xulosani beradi. Ammo har ikki asarni qiyosiy jihatdan o‘rganish jarayonida ijodkorlar o‘rtasidagi ma‘naviy-ruhiy yaqinlikning mavjudligi ayon bo‘ladi hamda o‘sha davrdagi adabiy ta‘sir masalalari xususida aniqroq tushunchaga ega bo‘lish imkoni tug‘iladi. Natijada mavzu jihatidan uyg‘un asarlarda Navoiyning Jomiyga ta‘siri emas, balki Jomiyning Navoiyga ta‘siri ustun bo‘lganligi namoyon bo‘ladi. Ammo bu ustunlikni oshirib yuborish holatlari mavjud bo‘lib, ayrim adabiyotshunoslar “Saddi Iskandariy”ni “Xiradnomayi Iskandariy”ning batafsil bayoni demoqchi bo‘ladilar. “Alisher Navoiy Jomiyning “Iskandarnoma”siga *qayta tartib berishi bilan* voqealar bayoniga, hikoyatlarga aniqlik kiritgan, bu esa asarni falsafiy-axloqiy jihatdan boyitib, Iskandar timsolining turkiy adabiyotdagi o‘ziga xos shakl-shamoyilini vujudga keltirgan”²⁵, – degan fikrlar ham borki, bu “Saddi

²³ Чомий. Хирадномаи Исқандарий. Критический текст. – Москва: Наука, 1984. – С. 341.

²⁴ Бертельс. Навои. Опыт творческой биографии. – С.159-219.

²⁵ Marc Toutant. Evaluating Jami’s Influence on Navai. – The Case Studies of the Khiradnama-yi Iskandari and the Sadd-i Iskandari. – P. 606-652.

Iskandariy” “Xiradnomayi Iskandariy” dostonining erkin tarjimasini degan yanglish xulosani keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy asarni Jomiyning dostoni asosida yaratganini yozadi, ammo buni tarjima emas, balki ijodiy izdoshlik, nazira deb tushunish lozim. Jomiy va Navoiy dostonlarida Iskandar (Jomiyda bir podshoh) va gadolik yo‘lini tutgan shahzoda hikoyati hamda Iskandarning onasiga yozgan maktubi mazmunida mushtaraklik mavjudligi kuzatiladi. Hikoyatning sayyor sujet asosida yaratilganligini “Miftoh ul-adl” asarida ham o‘rin olganidan sezish mumkin. Iskandarning onasiga yozgan maktubi mazmunining tarixiy asarlarda, shuningdek, Nizomiy Ganjaviy dostonida ham keltirilgani uning ham sayyor sujetliligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyda Iskandarning taxtga o‘tirishi ustoz xamsanavislarnikidan birmuncha farq qiladi. Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyda shahzoda taxt merosxo‘ri sifatida gavdalantirilib, otasi o‘limidan so‘ng boshqaruvni qo‘lga olgan bo‘lsa, Navoiy va Jomiyning Iskandarlari ota taxtiga o‘zlarini munosib ko‘rishmaydi, ya‘ni xalqning xohishi bilan saltanat boshqaruvini qo‘lga olishadi. Jomiyning Iskandari xalq bilan o‘zining orasida hech qanday farq yo‘qligini, hamma kabi Alloh bandasi ekanligini, qalbida hokimiyat istagi bo‘lmagani bois xalqqa o‘zlari uchun saxovatpesha va adolatparvar podsho topishlarini aytadi: *Бучъед аз бахпу худ меҳтаре, // Карамнарваре, маъдалатгустаре.*²⁶ (O‘zingizga karamli, saxovatli rahbar saylang). Alisher Navoiyda esa Iskandar otasining vasiyatiga amal qilib (“Mulkimda begonani qo‘ymag‘il, Shabistonima yonani qo‘ymag‘il”), mamlakat taxtiga o‘tirsada, *Siz emdi o‘zunguzga shohe toping, //Bu kishvarg‘a kishvarpanohe toping.*²⁷ // deya mamlakat taxtiga loyiq podshoh qidirishlarini aytadi.

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini ikki buyuk o‘zanning tutashuviga qiyos etsa bo‘ladi: bir tomondan Iskandar tarixiga bag‘ishlangan dostonlar sujeti, ikkinchi tomondan pand-nasihat, ilm-u hikmat, tavoze’ va himmat, odamiylik va adolatga bag‘ishlangan ma‘nolar xazinasini. Navoiyda Iskandar bir o‘rindagina Suqrotdan nasihat tinglaydi. Boshqa holatlarda asarning nazariy qismi Iskandarning savoli va Arastuning javobi tarzida kechadi. Abdurahmon Jomiyda esa hakimlar hikmati va mavzuga oid hikoyat bilan bob yakunlanadi. Hikoyatlarning mazmuni Iskandar sarguzashtiga emas, balki hakimlarning xiradnomasiga uyg‘un tarzda beriladi. Alisher Navoiyda esa Iskandar sujetiga bog‘liq hikoyat ilova qilinadi. Qiyosiy tahlillar asosida Jomiyning maqsadi Iskandarning tarixi emas, xiradnoma yozish bo‘lgani, an‘anadan chetlashmaslik uchungina Iskandar sujetiga murojaat qilgani ayon bo‘ladi.

Bobning “**Kompozitsiyada an‘ana va novatorlik masalasi**” deb nomlangan ikkinchi faslida dostonlar kompozitsiyasidagi umumiylik va o‘ziga xoslik masalasi o‘rganilgan. “Saddi Iskandariy” dostonining kompozitsiyasi muayyan bir faslni tashkil etuvchi sarguzasht, hikmat, hikoyat va nazariy masaladan iborat fasllardan tarkib topgan bo‘lib, bunday kompozitsion qurilish boshqa iskandarnomalarda kuzatilmaydi. 89 bobli dostonning 14 bobi muqaddima, 2 bobi xotima, 18 bobi

²⁶ Чомий. Хирадномай Искандарий. Критический текст. – Москва, Наука, 1984. – С. 346.

²⁷ Alisher Navoiy. TAT: O‘n jildlik / mas‘ul muharrir: I.Haqqul. J.8. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2012. – B. 86.

Iskandar sujeti bilan bog‘liq. Qolgan boblar esa nazariy masalalar, hikoyat va hikmatlar hisoblanadi. IX bobdan soqiynoma, mug‘anniynoma va Navoiyga murojaat keltirilgan bo‘lib, dostonning “...boblari xotimasida jami 155 bayt (310 misra) soqiynoma mazmunini ifodalaydi. Shundan 51 bayt soqiy va ayog‘chiga murojaat bilan boshlangan. Qolgan baytlarda mug‘anniy (51 bayt) va shoirning o‘ziga (53 bayt) xitob qilingan”²⁸. Bular sujetning yakunlanganini ifodalovchi xotimalar hisoblanib, XLVII bob so‘ngida bu qonuniyat buzilgan va XLVIII bobda yana doston voqealari berilgan. Demak, mazkur boblar ijodkorning maqsadiga muvofiq bitta bob sifatida shakllangan bo‘lib, keyinchalik nashrga tayyorlovchilar tomonidan ikkiga ajratilgan bo‘lishi mumkin. S.Tohirov fikricha, “Zamonaviy nashrlarda mutolaa qulayligi, mundarijani tuzish va statistik ma’lumotlar talabidan kelib chiqib, boblar raqamlanadi”²⁹.

“Xiradnomayi Iskandariy” dostoni 10 bob debocha, 28 bob asosiy qism va 2 bob xotimadan tarkib topgan. Unda har bir voqea yoxud nazariy fikrdan so‘ng hikoyat keltiriladi. Debocha an’anaviy xarakterga ega bo‘lib, hikoyatga ham o‘rin berilgani xamchachilikdagi o‘ziga xoslik sifatida namoyon bo‘ladi. Adib doston yozilgunga qadar yaratilgan asarlarni chig‘iriqdan o‘tkazadi va umri shakl izlab o‘tib ketganligini, endi ma’niga e’tibor qaratishi lozimligini o‘ylaydi. Lekin bu yo‘lda ma’ni izlab shakldan ham, mantiqdan ham ayrilib qolishdan cho‘chir ekan, o‘zini qari kalxatga o‘xshatib, kalxat va qurbaqa haqidagi hikoyatni ilova qiladi. Keyingi hikoyat insonning o‘ziga emas, balki so‘ziga boqish lozimligi haqida bo‘lib, u ham debochada keltirilgan. Abdurahmon Jomiy bu hikoyat bilan dostonning mantig‘iga boqing, uning asl mohiyatini anglang, deydi go‘yo. Asosiy qismdagi hikoyatlar ham hisobga olinganda, Jomiy jami yigirma uchta hikoyat keltiradi. “Saddi Iskandariy” garchi hajm jihatidan salmoqdor bo‘lsa-da, unda o‘n sakkizta hikoyat mavjudligi kuzatiladi. Jomiyning dostoni sarguzashtdan ko‘ra ko‘proq pandnoma xarakterida bo‘lgani bois keltirilgan hikoyatlar nazariy fikr tasdig‘i shaklini olgan. Lekin dostonning ayrim o‘rinlarida bu qonuniyat buzilgan, jumladan, XVI, XX, XXII, XXVI, XXVII va XXVIII boblarga hikoyat ilova qilinmagan. XXIV, XXV boblarda esa hikoyatlarning o‘rniga hakimlarning ta’ziyalari keltirilgan. Alisher Navoiy doston debochasida zamona podshosi Husayn Boyqaro va shahzoda Badiuzzamon madhini keltiradi, Jomiy doston debochasida ham, xotimasida ham farzandga nasihat nomi bilan bir bob ajratadi. Navoiy va Jomiy debochalaridagi asosiy o‘xshashlik zamona podshosining madhi bo‘lsa, farqi Navoiy debochasida farzandga nasihatning keltirilmaganligidir. Har ikki dostonning xotima qismlarida nasihat mavjud bo‘lib, Navoiyda Darveshaliga, Jomiyda esa farzandga nasihat tarzida keltiriladi.

Bobning uchinchi fasli **“Dostonlardagi obrazlar va timsollarning qiyosiy tahlili”** deb nomlangan. Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy”da tarixiy va taxayyuliy timsollar asosida obraz yaratishga erishadi. U hikoyatlarida salafklariga nisbatan ko‘proq tarixiy shaxslar obraziga murojaat qiladi. Shoh Mahmud va o‘g‘li Mas‘ud, Abu Said Ko‘ragon, shoh Bahrom, Majnun, Luqmon, Ardasher va Ardavon hayoti

²⁸ Асадов М. Соқийнома: тарих ва поэтика. Монография. – Тошкент: Тафаккур, 2020. – Б. 134.

²⁹ Тоҳиров С.Қ. Темурийлар даврида хамсанавислик. Монография. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – Б. 206.

bilan bog'liq hikoyatlar shular jumlasidandir. Hikoyatdagi obrazlar o'z navbatida ramziy mohiyat kasb etadi. Chunonchi, Shoh Mahmud adolat, Abu Said Ko'ragon baxil podshoh, Bahrom mehmon, Majnun ayriliqqa uchragan yor visoliga tashna oshiq, Luqmon barcha zakiy insonlar, aql va tafakkur, Ardavon tadbirkor, fahm-u farosatli inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Xuddi shu tarzda boshqa obrazlar ham ma'lum ma'noda ramziy mohiyat kasb etadi: baliqlar g'ofil bandalarning, ikki do'st sodiqlik va vafoning, savdogar saxovatning, bilagi kesilgan kishi hamdard izlagan odamning, xazina qidirgan kishi noshukur bandaning, tut to'g'rilikning, kabutar vatanparvar insonning, yosh yigit dunyoga ko'ngil qo'ygan nafs bandalarining timsoli sifatida gavdalanadi.

“Xiradnomayi Iskandariy” dostonidagi obrazlar ham muayyan g'oyaviy-badiiy vazifani bajarishga xizmat qildirilgan. Asarda tarixiy, taxayyuliy obrazlar bilan bir qatorda, hayvonlar obrazi ham mavjud. Asarning bosh qahramoni adolatli shoh, dunyo kezib haqiqat izlovchi sayyoh, faylasuf sifatida namoyon bo'ladi. Iskandar obrazi hakimlar bilan bir qatorda hikmat durlarini sochuvchi ustoz mukarram hisoblanib, kishilarni odamiylikka, hamjihatlikka, parhezkorlikka chorlaydi. Asarda keltirilgan har bir hakimning so'zlarini o'ziga xos hikmat xazinasi sifatida tushunish mumkin. Jumladan, Jomiy Faysog'uras hakim tilidan Iskandarga, u orqali butun insoniyatga nasihat qiladi. Inson tilini tiyishi, yaxshilarga oshno bo'lishi kerakligini uqtirib, hatto pul sarfida ham me'yorga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Hikoyatlar tarkibidagi obrazlar ramziy mohiyat kasb etadi. Xususan, sahrodagi kampir, shohlikdan gadolikni ustun qo'yuvchi shahzoda, tikuvchi obrazlari shukur qiluvchi solih bandalar timsoli; qo'lida katta noni bo'laturib nafi to'ymayotgan bola noshukur banda timsoli, so'zi ma'nisiz, ammo tashqi ko'rinishini bezagan yigit va hayit kuni ko'zguga boqib, kibrga berilgan yigit o'ziga ortiqcha bino qo'yuvchilar timsoli, yer sotuvchi va oluvchilar saxiy insonlar timsoli; chunonchi, hayvonlar obrazi: qurbaqa shakl, kalxat muallif timsoli, tulki va baliqchi qush ayyorlik timsoli, tuya noshukurlik, baliq esa soddalik timsoli sifatida talqin qilinadi. Dostonlarda yunon hakimlaridan Arastu, Suqrot dan tashqari Naqumojis (dostonda Arastuning otasi), Aflotun, Asqalinus, Buqrot (Gippokrat), Hurmus, Faysog'urs (Pifagor) obrazlari uchraydi, bular asli yunon hakimlari bo'lsa-da, nasihatlari, gap-so'zlari sharq allomalari, mutasavvurlarini eslatadi. Ma'lumki, yunon hakimlaridan ko'pchiligining asarlari butun dunyo bo'ylab tarqalgan, aksariyati arab tiliga tarjima qilinib, sharhlar bitilgan. Ammo Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning maqsadi ularning tarixi, asarlari, hatto so'zlari va hikmatlarini ham bayon etish emas, balki ularning timsolida o'z g'oyalarini singdirish edi. Ya'ni har ikki ijodkor ularning nomlaridagina foydalanib, so'zlarini zamona va jamiyatga moslaydilar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Dostonlardagi hikoyatlarda adabiy ta'sirning o'rni va ahamiyati”** deb nomlanib, uning birinchi faslida **“Hikoyatlardagi g'oyaviy mutanosiblik va ijodiy o'ziga xoslik”** haqida fikr yuritiladi. Abdurahmon Jomiy hikoyatlarida, asosan, nafs, kibr, ochko'zlik, yolg'onchilik, soddalik, ayyorlik, fitna kabi illatlar qoralanib, saxiylik, mulohazakorlik, to'g'rilik, hilm, qanoat kabi fazilatlar ulug'lanadi. Alisher Navoiy hikoyatlari mazmun jihatidan rang-barang bo'lib, ular o'n sakkizta mavzuga

